



“ASIL VA KARAM” DOSTONIDA SAFAR MOTIVI

Soatova Shahnozabonu Farhod qizi
Guliston davlat universiteti
Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)
yo'nalishi 2-kurs magistranti
Email: shahnozasoatova7@gmail.com
Tel: +998995362904

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14619743>

ARTICLE INFO

Received: 2nd January 2025

Accepted: 4th January 2025

Published: 8th January 2025

KEYWORDS

otiv, folklor, ma'naviy o'sish, epik janr.

ABSTRACT

“Asil va Karam” dostonida safar motivi markaziy mavzulardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada dostonidagi safar syujetining badiiy ahamiyati, qahramonlarning o'zini anglash va ma'naviy o'sish jarayonidagi roli tahlil qilinadi. Asil va Karamning yo'ldagi sarguzashtlari ularning insoniy fazilatlarini, muhabbat va sadoqat kabi asosiy qadriyatlarini namoyon etishda xizmat qiladi. Safar motivi orqali doston voqealari ijtimoiy-madaniy kontekstda bog'lanadi hamda xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi.

Badiiy adabiyotda bo'lgani kabi folklorda ham motiv tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Motiv (fr. Motif- kuy, ohang so'zidan) – syujet tarkibidagi uni yuzaga keltiruvchi asosiy halqalardan biridir. Motivlar o'zaro birlashib syujetni yuzaga keltiradi. Qahramonning g'ayritabiiy tug'ilishi, personajlarning ovga yoki safarga chiqishi, uning qahramonlik uyqusiga ketishi, tush motivlari shular jumlasidandir. Har qanday epik ijod, birinchi navbatda, ertak va dostonlar ham o'z qurilmasiga ega. Motiv esa ana shu qurilmada asosiy o'rin tutadi. Epik asarlardagi motivlarni aniqlash, har bir motivning boshqa motivlar bilan bog'liq jihatlarini, ichki harakat va xususiyatlarini, badiiy- estetik vazifalarini tahlil qilish folklorshunoslikdagi muhim masalalardan biridir. “Motiv syujetning mag'zidir”, - deydi B.Putilov. [Путилов Б. Мотив как сюжетообразующей элемент. Типологические исследование по фольклоре. – М.: Наука, 1975.]

“Asil va Karam” dostoni turk xalqi ijodining mshhur namunalaridan biri bo'lib, unda sevgi, fidoyilik va sadoqat mavzulari qalamga olingan. Dostonda safar motivi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u qahramonlarning hayotiy yo'llarini belgilab, voqealar rivojini harakatga keltiradi. Dostonning asosiy qahramoni Karam sevgilisi Asilni izlab uzoq yo'lga chiqadi. Bu safar faqatgina geografik masofani bosib o'tish emas, balki ma'naviy va ruhiy sayohat sifatida ham tasvirlanadi. U sevgi yo'lida barcha to'siqlarni yengishga tayyor ekanligini ko'rsatadi:

*Gaduklar bulg'anur qordan,
Tevalar yuklanur zardan,
Asilxondek sevar yordan,
Man do'narman, ko'nghim do'nmas
Eshiting Karamning dodin
Asilxon parizod yodin,
Qo'ldin bermay o'z sayyodin,*

Man do'narman, ko'nglim do'nmas.

Safar davomida Karam turli tabiiy to'siqlarga (tog', cho'llar) duch keladi, shuningdek, ijtimoiy to'siqlar (oilaviy qarshilik, jamiyatdagi an'analar, diniy tafovut) uni sevgilisiga yetishishiga xalaqit beradi.

Biri yuk yuklamish halab Shirvondan,

Har kunimiz o'tar bir yil, bir oydin,

Karamjon tilaging tila Xudoydan,

Hanuz o'tmadi hech vaqti shul yorning

Yulduzlar oy bilan ko'kka chiqarlar

Yodingga tushganda bag'rin ezarlar

Sandin xabar olay nozanin qizlar

Qizlar yorim bu diyora keldimi?

Dostonda safar motivi ko'pincha mistik ramzlar bilan boyitilgan. Karamning yo'lidagi sinovi tasavvufiy ma'noda insonning Allohga yetishish yo'lidagi ruhiy o'sishini ifoda etadi:

Alifni o'qidim bordim nuqata

Oshiq ma'shuqini o'rtar unuta

Bo'yla kirdim oy kirgandek buluta,

Kuni botmish qorong'udir kechalar

Karamning yo'li sevgilisini topish bilan yakunlanadi. Bu safarning ma'nosi shundan iboratki, inson o'z sevgi va orzulariga yetishish uchun har qanday qiyinchilikni yengishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, "Asil va Karam" dostonida safar motivi markaziy mavzulardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Dostondagi safar syujetining badiiy ahamiyati, qahramonlarning o'zini anglash va ma'naviy o'sish jarayonidagi rolibeqiyos. Asil va Karamning yo'ldagi sarguzashtlari ularning insoniy fazilatlarini, muhabbat va sadoqat kabi asosiy qadriyatlarini namoyon etishda xizmat qiladi. Safar motivi orqali doston voqealari ijtimoiy-madaniy kontekstda bog'lanadi hamda xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi.

Adabiyotlar:

1. "Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti" mavzusidagi VII an'anaviy Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T. 2024-yil 26-aprel.
2. Fayzullayeva, O. (2022). General Typological Characteristics Of Lyric Cycles. *Science and innovation*, 1(B5), 231-236.
3. Fayzullayeva, O. (2023). LYRIC IMAGE OF" I" IN CYCLES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(6 Part 3), 118-125.
4. Fayzullayeva, O. (2024). THE ISSUE OF FORM AND CONTENT IN LYRIC CYCLES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(1), 55-60.
5. Kholbekovna, F. O. (2021). The issue of artistic idea in poetry. *European Scholar Journal*, 2(4), 233-236.
6. Kholbekovna, F. O. (2021). The issue of artistic idea in poetry. *European Scholar Journal*, 2(4), 233-236.
7. Kholbekovna, F. O., & Dehqonovna, D. G. (2020). The Hero Issue In The Lyrics. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(8), 3409-3413.
8. Ibrohimovna, M. S. (2019). TECHNIQUES OF IMPROVING SPEAKING IN ESP CLASSES FOR MILITARY. CONDUCT OF MODERN SCIENCE-2019, 139.
9. Mamatkulov, M., & Fayzullayeva, O. (2024). Expression Of Symbols And Allegorical Images In Lyric Cycles. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-7.
10. Oshiqnoma. To'plam. 8-kitob. – Urganch: UrDU nashriyoti.
11. Taxmasb M. Ozarbayjon muhabbat dostonlari. – Toshkent.1973.
12. Xolbekovna, F. O. (2021). POETICS OF UZBEK CYCLE SONNETS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 394-402.
13. Путилов Б. Мотив как сюжетобразующей элемент. Типологические исследование по фольклоре. – М.: Наука, 1975.